

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022

YANVAR

№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
25-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-25**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-25**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 21 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Ro‘ziboyev Murodjon	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY MASHG‘ULOTLAR BILAN ISHLASH.....	7
2. Iskandarova Nasiba	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY MASHG‘ULOTLAR BILAN ISHLASH.....	9
3. Boltayev Boltaboy	
O‘RTA OSIYO HUDUDI TUZILISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI.....	11
4. Karimova Mexribon Omonboyeva, Atabayeva Nasiba Farxad qizi	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARINI O‘QITISH USULLARI.....	13
5. Kenjayeva Madina Abdullayevna	
O‘RTA OSIYO IQLIMI VA UNGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR.....	14
6. Boboxonova Maktuba	
GOEGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA GEOGRAFIK XARITA VA ATLASLARNI O‘RNI.....	16
7. Matkurbonova Diloram Xamroyevna	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA NOAN‘ANAVIY DARS VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	18
8. Nazarova Gulmira Bekchanovna	
YERNING ICHKI TUZILISHI VA TEKTONIK JARAYONLAR.....	19



ГЕОГРАФИЯ

ГЕОГРАФИЯ ДАРSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR BILAN ISHLASH

Ro'ziboyev Murodjon,
Xorazm viloyati Bog'ot tumani 36
-maktab geografiya fani o'qituvchisi
Telefon nomer: +998995089878

***Annotatsiya:** Maqolada geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlardan foydalanish orqali o'quvchilarga o'tilayotgan mavzu haqida ko'proq bilim va tushunchalar hosil qilish haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini aniqlash, nisbiy namlik, mutloq namlik, namlik koeffitsiyenti, havodagi suv bug'i, daryo nishabligi, daryo zichligi, mutloq balandlik, yillik yog'in miqdori.*

Maktab dargohlarida o'qitish jarayonida bosqichma bosqich oddiylikdan murakkablikka tomon o'quvchilarni zeriktirmasdan turli xil amaliy mashg'ulotlar bilan tushuntirsak fanga bo'lgan qiziqish ortadi, o'quvchilarni dunyoqarashi, fikrlashi, yer yuzasiga, tabiatga bo'lgan qarashi rivojlanadi va antropogen ta'sirlar kamayadi, aholi orasida ekologik ma'daniyat rivojlanadi.

Geografiyadan mashq va masalalar yechish o'quvchilarda quyidagi ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga ximat qiladi:

1. O'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.
2. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarning tashqi ko'rinishi bilan birga uning ichki tuzilishini tasavvur eta bilish qobiliyati rivojlanadi.
3. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga qaratilgan bilimlar rivojlanadi.
4. O'quvchilarda muayyan geografik obyekt, hodisa va jarayonlar ko'lamini aniqlashga doir hisoblash malakalari takomillashadi.
5. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy tafakkurlay olish malakalari shakllanadi. Bu masalarni 5-sinf o'quvchilarida dars mavzusini tushuntirgandan so'ng, amaliy mashg'ulotlar bilan ishlash mumkin.

Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini aniqlash:

Mutloq namlik-1 metr kub havoda mavjud bo'lgan va gramm hisobida o'lchanadigan suv bug'lari miqdori.

Nisbiy namlik-muayyan haroratli havoda mavjud bo'lgan suv bug'i miqdorining shunday haroratli havoda to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i miqdoriga nisbati

Havoning nisbiy namligini aniqlash

$$R = e/E * 100\%$$

R- nisbiy namlik

e- havoda ayni vaqtda mavjud bo'lgan suv bug'i miqdori

E-havoning to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i miqdori

Turli haroratda havoning namga to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'lari miqdori

Havo o'zida turli miqdorda suv bug'larini tutib turishi mumkin.

Havoning qancha suv bug'ini tutib turishi havo haroratiga bog'liq. Agar havo harorati 0 °C bo'lsa, 1 m³ havo o'zida 5 g, +10 °C bo'lsa, 9 g, +20 °C da 17 g va +30 °C bo'lsa, 30 g suv bug'ini tutib tura oladi. Demak, havo qanchalik sovuq bo'lsa, shuncha kam va qanchalik issiq bo'lsa, shuncha ko'p suv bug'ini ushlab tura oladi.

1 metr kub havoda +20 gradus haroratda 11 gramm suv bug'i mavjud bo'lsa, havoning nisbiy namligini aniqlang .



$$R=e/E*100%= 11gr/17gr*100%=64.7\%$$

Mustaqil yechish uchun:

• Havo harorati +10 gradus bo`lganda 1metr kub havo tarkibida 5gramm suv bug`i mavjud bo`lsa havoning nisbiy namligini aniqlang

• Havo harorati +30 gradus bo`lganda 1metr kub havo tarkibida 5gramm suv bug`i mavjud bo`lsa havoning nisbiy namligini aniqlang

• Harorat +20 gradusda nisbiy namlik 50 %. Mutlaq namlikni toping.

• Namlik koeffitsiyenti-ma`lum bir hududdagi havoning namlik bilan ta`minlanganlik darajasi.

$$K=Yo/B$$

K-namlik koeffitsienti,

Yo-yillik yog`in miqdori,

B-mumkin bo`lgan bug`lanish miqdori.

• Mustaqil yechish uchun masalalar:

1.Sirdaryo dengiz sathida 3850 metr balandlikdan boshlanib, 67 metr Mutlaq balandlikda Orol dengizga quyiladi. Agar daryoning umumiy uzunligi 3019 km bo`lsa, daryoning nishabligini toping.

Yuqoridagi amaliy mashg`ulotlar, ayrim mavzular uchun xolos,deyarli har bir mavzuni amaliy mashg`ulotlar yordamida tushuntirib o`quvchilar bilimini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. Internet ma`lumotlari.

2. Amaliy mashg`ulotlar. Sh.Z.Jumaxanov. A.M.Toshpo`latov.Namangan-2018



GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR BILAN ISHLASH

Iskandarova Nasiba,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
32-maktab geografiya fani o'qituvchisi
Telefon nomer: +998999497482

***Annotatsiya:** Maqolada geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlardan foydalanish orqali o'quvchilarga o'tilayotgan mavzu haqida ko'proq bilim va tushunchalar hosil qilish haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini aniqlash, nisbiy namlik, mutloq namlik, namlik koeffitsiyenti, havodagi suv bug'i, daryo nishabligi, daryo zichligi, mutloq balandlik, yillik yog'in miqdori.*

Maktab dargohlarida o'qitish jarayonida bosqichma bosqich oddiylikdan murakkablikka tomon o'quvchilarni zeriktirmasdan turli xil amaliy mashg'ulotlar bilan tushuntirsak fanga bo'lgan qiziqish ortadi, o'quvchilarni dunyoqarashi, fikrlashi, yer yuzasiga, tabiatga bo'lgan qarashi rivojlanadi va antropogen ta'sirlar kamayadi, aholi orasida ekologik ma'daniyat rivojlanadi.

Geografiyadan mashq va masalalar yechish o'quvchilarda quyidagi ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga ximat qiladi:

1. O'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.
2. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarning tashqi ko'rinishi bilan birga uning ichki tuzilishini tasavvur eta bilish qobiliyati rivojlanadi.
3. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga qaratilgan bilimlar rivojlanadi.
4. O'quvchilarda muayyan geografik obyekt, hodisa va jarayonlar ko'lamini aniqlashga doir hisoblash malakalari takomillashadi.
5. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy tafakkurlay olish malakalari shakllanadi. Bu masalarni 5-sinf o'quvchilarida dars mavzusini tushuntirgandan so'ng, amaliy mashg'ulotlar bilan ishlash mumkin.

Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini aniqlash:

Mutlaq namlik-1 metr kub havoda mavjud bo'lgan va gramm hisobida o'lchanadigan suv bug'lari miqdori.

Nisbiy namlik-muayyan haroratli havoda mavjud bo'lgan suv bug'i miqdorining shunday haroratli havoda to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i miqdoriga nisbati

Havoning nisbiy namligini aniqlash

$$R = e/E * 100\%$$

R- nisbiy namlik

e- havoda ayni vaqtda mavjud bo'lgan suv bug'i miqdori

E-havoning to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i miqdori

Turli haroratda havoning namga to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'lari miqdori

Havo o'zida turli miqdorda suv bug'larini tutib turishi mumkin.

Havoning qancha suv bug'ini tutib turishi havo haroratiga bog'liq. Agar havo harorati 0 °C bo'lsa, 1 m³ havo o'zida 5 g, +10 °C bo'lsa, 9 g, +20 °C da 17 g va +30 °C bo'lsa, 30 g suv bug'ini tutib tura oladi. Demak, havo qanchalik sovuq bo'lsa, shuncha kam va qanchalik issiq bo'lsa, shuncha ko'p suv bug'ini ushlab tura oladi.

1 metr kub havoda +20 gradus haroratda 11 gramm suv bug'i mavjud bo'lsa, havoning nisbiy namligini aniqlang .

$$R = e/E * 100\% = 11\text{gr}/17\text{gr} * 100\% = 64.7\%$$

Mustaqil yechish uchun:

- Havo harorati +10 gradus bo'lganda 1metr kub havo tarkibida 5gramm suv bug'i mavjud bo'lsa havoning nisbiy namligini aniqlang
- Havo harorati +30 gradus bo'lganda 1metr kub havo tarkibida 5gramm suv bug'i mavjud bo'lsa havoning nisbiy namligini aniqlang
- Harorat +20 gradusda nisbiy namlik 50 %. Mutlaq namlikni toping.
- Namlik koeffitsiyenti-malum bir hududdagi havoning namlik bilan ta'minlanganlik darajasi.



K=Yo/B

K-namlik koeffitsienti,

Yo-yillik yog`in miqdori,

B-mumkin bo`lgan bug`lanish miqdori.

• Mustaqil yechish uchun masalalar:

1. Sirdaryo dengiz sathida 3850 metr balandlikdan boshlanib, 67 metr Mutlaq balandlikda Orol dengizga quyiladi. Agar daryoning umumiy uzunligi 3019 km bo`lsa, daryoning nishabligini toping.

Yuqoridagi amaliy mashg`ulotlar, ayrim mavzular uchun xolos,deyarli har bir mavzuni amaliy mashg`ulotlar yordamida tushuntirib o`quvchilar bilimini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. Internet ma`lumotlari.

2. Amaliy mashg`ulotlar. Sh.Z.Jumaxanov. A.M.Toshpo`latov.Namangan-2018



О’РТА ОСИYO HUDUDI TUZILISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Boltayev Boltaboy

Xorazm viloyati Xiva tuman

6-son maktab geografiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’rta Osiyo hududidagi tekisliklar va tog’liklarning tuzilishi, paydo bo’lishi, relyefi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: O’rta Osiyo, tog’, tekislik, relyef, qir, botiq, muz, plato, suv.

O’rta Osiyo hududi shakllanish tarixi va yer yuzasining hozirgi holatiga ko’ra ikki qismga, ya’ni tekislik va tog’larga bo’linadi.

Tekisliklar. O’rta Osiyoning markaziy, g’arbiy va shimoliy qismlarida joylashgan. O’rta Osiyoning anchagina qismini Turon tekisligi egallagan. Bu tekislikda O’rta Osiyoning yirik cho’llari - Qoraqum hamda Qizilqum joylashgan. Bu yerlarda nurash va shamol relyef hosil qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli cho’llarda asosiy relyef shakllari barخانlar, qum tepalari, qator qum balandliklaridir. Qizilqumning markaziy qismida yemirilish natijasida pasayib qolgan bir qancha tog’lar qad ko’tarib turadi. Qoraqumning janubi-sharqiy qismida baland tekisliklar - Badxiz va Qorabel platolari joylashgan. Tekislikning shimoli va shimoli g’arbida baland yassi tekislikdan iborat Ustyurt va To’rg’ay platolari joylashgan.

Ustyurt platosi Orol va Kaspiy dengizlari oralig’ida joylashgan. U atrofidagi tekisliklardan «chink» deb ataladigan baland, tik jarliklar bilan keskin ko’tarilib turadi. Platoning shimoliy qismi qumli tekislikdan, markaziy qismi qirlardan, janubiy qismi qir va botiqlardan iborat. Platoning bu qismida Borsakelmas, Sariqamish, Qorniyoriq va boshqa botiqlar joylashgan. To’rg’ay platosi to’lqinsimon tekislikdan iborat, uning markazida To’rg’ay botig’i joylashgan.



1- rasm. Tabiat yodgorliklari: 1 – Tosh ustun. Zomin milliy bog’i; 2 – «Dinozavrlar kurashi» qoyasi.

O’rta Osiyoda tog’oldi va tog’lar oralig’ida joylashgan tekisliklar ham keng maydonlarni ishg’ol qilgan. Bu tekisliklar tog’larda yemirilgan tog’ jinslarini vaqtinchalik va doimiy oqar suvlar oqizib keltirib yotqizishidan hosil bo’lgan. Bunday tekisliklarga Farg’ona vodiysi, Mirzacho’l, Zarafshon, Qashqadaryo,

Surxondaryo vodiylarini misol qilib keltirish mumkin. Ularning yer yuzasi sal qiya bo’lib, vohalarga aylantirilgan eng unumdor yerlar hisoblanadi.

Tog’lar. Tekisliklarni tog’lar sharq va janub tomondan o’rab turadi. Shimolda Qozog’iston past tog’lari joylashgan, ularning katta qismi yemirilib, qirli tekisliklarga aylanib qolgan. Faqat markaziy qismigina atrofdagi qir tekisliklardan biroz ko’tarilib turadi. Qozog’istonning sharqiy qismida yakka-yakka joylashgan Chingiztog’, Torbog’otoy va Jung’oriya Olatovi cho’zilib ketgan.

O’rta Osiyoning sharqiy qismida eng yirik Tyanshan tog’lari tizimi joylashgan. Uning eng baland qismi muz bilan qoplangan Xontangri tog’laridir (G’alaba cho’qqisi, 7439 m). Tyanshan tog’lari shimoliy, markaziy, g’arbiy va janubiy qismlarga bo’linadi.

Pomir tog’lari o’lkaning janubida joylashgan. Uning eng baland nuqtasi Somoniy cho’qqisi



bo‘lib, balandligi 7495 m. Pomir tog‘larining eng baland joylari muz va doimiy qorlar bilan qoplangan. O‘rta Osiyodagi eng uzun muzlik (Fedchenko muzligi) ham shu tog‘da joylashgan. Pomirning janubida shimoli sharqdan janubi g‘arbga yo‘nalgan Hindukush tog‘lari bor.

O‘rta Osiyoning janubiy qismi Turkman-Xuroson tog‘lari bilan o‘ralgan. Bu tog‘lar deyarli yoy shaklida joylashgan Kopetdog‘, Nishopur, Bandi Turkiston, Safedko‘h va Paropamiz tog‘laridan iborat. Mazkur tog‘larda shamol va suv ta‘sirida turli relyef shakllari hosil bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining geografiya fani darsliklari.
2. Internet materiallari.



GEOGRAFIYA DARSLARIDA HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARINI O'QITISH USULLARI

Karimova Mexribon Omonboyeva

Shovot tumani 42-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 433 24 87

mexribonomonboyeva_42@inbox.uz

Atabayeva Nasiba Farxad qizi

Urganch tumani 27-son maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (99) 689 26 69

atabayevanasiba_2669@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola geografiya darslarida hozirgi davrning asosiy muammolari va ularning yechimi o'qitish haqida.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, tabiiy ofatlar, demografik muammo, ekologik muammo, urush va tinchlik.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti hechqachon va hechqayerda oson, beto'siq kechmagan. hardoim va hamma davrlarda jamiyat oldida muayyan muammolar ko'ndalang bo'lib turgan. Bular, bir tomondan, tabiat ofatlarining natijasi o'laroq namoyon bo'ladigan yer silkinishlari, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, quyosh radiatsiyasi o'zgarishi bilan bog'liq turli epidemik kasalliklar va hokozolar bo'lsa, ikkinchi tomondan, insoniyat faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotga oid bo'lgan antropogen muammolardir. Jahon miqyosida jarayonlari tahlili shunu ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda, insoniyat uchun o'tkir, dolzarb bo'lib turgan global muammolar quyidagilardan iborat:

a) yer yuzida tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarining oldini olish (urush va tinchlik muammosi);

b) atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammolar);

d) aholi sonining orta borishi bilan ishlab chiqarish rivojlanishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo)

e) yer yuzi aholisini zarur oziq –ovqat va energiya manbalari bilan ishonchli ta'minlash;

f) ochlik-qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ularda keyinda qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;

g) xavfli kasalliklarni tugatish;

h) inson ma'naviy-axloqiy muhiti sofligini ta'minlash;

Bu muammolarning har biri u yoki bu darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqiy nuqtayi nazardan ilmiy tahlil etilgan. Kelib chiqishi, chuqurlashib borishi, ko'lami va hal etilishining murakkabligi jihatlariga ko'ra, ularni uch guruhga ajratish mumkin.:

Birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzumning tabiati, turli mintaqa davlatlarning xilma–xil manfaatlarini taqozo etilgan muammolar.

Ikkinchi guruhi, -inson kelib chiqadigan muammolari.

Uchinchisi, "Jamiyat–tabiat" tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar

Global muammolarning turlari o'zaro qanchalik farqlansada, bu sohalaridagi umumiylik dastavval butun insoniyatning hayoti, shart–sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir.

Ikkinchi tomondan ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili- fan-texnika inqilibi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. bizning davrimizda fanning rivojlanish sur'atlari g'oyat kattadir.

Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnika vositalari yaratishni ta'minlasa, o'z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlar sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Bularning natijasi o'laroq, erishilgan kashfiyotlar muayyan maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, yerdagi hayotni saqlab qolishning asosiy sharti-yalpi qirg'in urushlarning oldini olish hamda sayyoramizning bir qancha mintaqalari xalqlari qoloqligini tugatib, insoniyat jamiyati mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish insoniyat kuch g'ayratlarini birlashtirish lozim boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi 9-sinf darslik,, Jahon mamlakatlari geografiyasi,, ilmiy metodik qo'llanma.



О‘РТА ОСИYO IQLIMI VA UNGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

Kenjayeva Madina Abdullayevna
 Xorazm viloyati Urganch shahar
 6-son umumiy o‘rta ta’lim maktabining
 geografiya fani o‘qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyo iqlimiga ta’sir qiluvchi omillar, radiatsiya, havo massalari harakati, joyning relyefi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: iqlim, relyef, radiatsiya, quyosh, havo, ta’sir, hudud, vaqt.


O‘rta Osiyoning iqlimi juda rang-barang. O‘lkaning shimoliy qismida hali qish hukmron bo‘lib turgan vaqtda uning janubida va tog‘ oralig‘idagi vodiylarda daraxtlar gullab, bahor fasli boshlangan bo‘ladi. O‘rta Osiyo o‘lkasidagi iqlimiy sharoit, asosan, quyidagi omillar ta’sirida vujudga kelgan: *joyning geografik o‘rni va Quyosh radiatsiyasi, havo massalarining harakati, joyning relyef tuzilishi.*

O‘lkaning geografik o‘rni va Quyosh radiatsiyasi. O‘rta Osiyo Yevrosiyo materigining deyarli qoq markazida joylashgan. Bu uning aynan shu kenglikda joylashgan boshqa hududlarga nisbatan Quyoshdan ko‘proq radiatsiya olishiga sabab bo‘ladi.


Quyoshning yer yuziga tushadigan nur energiyasi va issiqligi Quyosh radiatsiyasi deb ataladi. Quyosh radiatsiyasining miqdori muayyan vaqt mobaynida 1 sm² yer yuzasiga kaloriya miqdorida tushgan nurli energiya bilan ifodalanadi.



1- rasm. Toshkentda 22- iyun (A) va 22- dekabr (B) kunlari Quyoshning ufqdan balandligiga qarab issiqligining taqsimlanishi



2- rasm. O‘rta Osiyoning shimoliy (A) va janubiy (B) chekkalarida 22- iyunda quyosh nurining tushish burchagi va bir xil miqdorda nur tushadigan maydon.



3- rasm. Oʻrta Osiyoning shimoliy (A) va janubiy (B) chekkalarida 22- dekabrda quyosh nurining tushish burchagi va bir xil miqdorda nur tushadigan maydon

Quyosh radiatsiyasining yer yuzasida taqsimlanishi geografik kenglikka bogʻliq, chunki quyosh nurlarining yer yuzasiga qanday burchak ostida tushishi hamda turli yerlarda kunning uzoqligi geografik kenglikka bogʻliq. Quyosh nurlari yer yuzasiga qancha tik tushsa, xuddi shu joy muayyan vaqtda koʻp issiqlik oladi (1, 2, 3- rasmlar).

Oʻrta Osiyo shimoliy va janubiy qismlari oʻrtasidagi kunning uzunligidagi eng katta farq yozgi va qishki quyosh tushishi kunlariga toʻgʻri keladi. Masalan, dekabrning oxirida oʻlkaning chekka janubiy qismlarida kun shimolga nisbatan taxminan 1 soat-u 10 minut uzun, iyun oyining oxirida esa, aksincha, 1 soat-u 50 minut qisqa boʻladi.

Joyning geografik kengligi shu hududda joylashgan yer yuzasiga tushishi mumkin boʻlgan quyosh energiyasi miqdorini belgilaydi. Lekin quyoshdan keladigan energiyaning hammasi ham yer betiga yetib kelmaydi. Uning 20 foizga yaqin qismi yer yuziga tushmay, havo qobigʻidan yana fazoga qaytib ketadi.

Quyosh nurlarining bir qismini havodagi suv bugʻlari, changlar, shuningdek, bulutlar yutadi va tarqatib yuboradi. Natijada atmosferada tarqoq radiatsiya vujudga keladi. Quyoshdan yer betiga bevosita yetib kelgan radiatsiya toʻgʻri radiatsiya deyiladi. Yer yuziga toʻgʻri radiatsiya ham, tarqoq radiatsiya ham tushadi. Yer yuzasiga tushadigan tarqoq radiatsiya bilan toʻgʻri radiatsiya birgalikda yalpi radiatsiya deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining geografiya fani darsliklari.
2. Internet materiallari.



GOEGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA GEOGRAFIK XARITA VA ATLASLARNI O‘RNI.

Boboxonova Maktuba

Namangan viloyati Yangiyo‘l tumani
26-maktab geografiya fani o‘qituvchisi
Telefon: +998999990683
boboxonovamaktuba@gmail.uz

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuv hamda fanni o‘quvchilarga tushuntirishda geografik xaritalarni o‘rni va ahamiyati haqida fikrlar ilgari surilgan.

TAYANCH SO‘ZLAR: Geografiya, materiya, metod, kartografik usul, geografik xarita, geografik atlas.

Ma‘lumki biror hudud, maydon (materik, qit‘a, mamlakat, provinsiya va h.k) haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishda geografik xaritalarning ro‘li beqiyosdir. Chunki, aynan ular orqali voqea-hodisalarning hududiy taqsimlanishini tushunarli ravishda ko‘rsatib beriladi. Ta‘kidlash joizki, geografiya fanlarini o‘qitishda kartografik asarlardan foydalanish metodik muammolardan sanaladi. Bugungi kunda karta va boshqa kartografik manbalar vositasida maktab o‘quvchisida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish davr talabiga aylandi. Bunday sharoitda o‘quv predmetining vazifalari o‘zgarib, uning mazmuni yoritishda qo‘shimcha manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”

Geografik bilimlarni shakllantirishda kartografik asarlarning mukammal turi bo‘lgan atalaslarning ahamiyati katta. Chunki, atalalar darsliklar mazmunini to‘ldirishga hamda voqeylikni ko‘rgazmali o‘rgatishga asoslangan va o‘quvchilarda soxaviy bilim va ko‘nikmalarning o‘zlashtirishda yaxlit tasavvur shakllantiradi. SHuning uchun, geografiyani o‘qitishda atalalar bilan ta‘minlanishi Geografiya kurslarini o‘qitishda kartografik asarlardan foydalanish o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni kundalik xayot bilan bog‘lash va tasavvur qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda atrof-muxitda ruy berayotgan xodisalar borasidagi geografik tasavvur va tushunchalar oson shakllanadi va ulardan foydalanish *muxim ahamiyat* kasb etadi. Shunga ko‘ra ta‘lim muasasalari uchun mo‘ljallangan geografik atlaslardan foydalanish masalalari va bu boradagi muammolar anchagina.

Ta‘lim jarayonida kartografik usulni qo‘llash o‘quvchilarning geografik tasavvurlari doirasining kengayishi, mavzularning ular uchun tushunarli bulishi xamda ular tomonidan puxta o‘zlashtirishiga yordam beradi. Binobarin, xududda tog va tekislik, daryo va ko‘l, cho‘l va urmon bir-biri bilan yonma-yon joylashgan bo‘lib, o‘quv bilish jarayonida jonli mushoxadadan abstrakt tafakkurga o‘tilishi uchun qo‘lay sharoit yuzaga keladi.

Dars jarayonida geografik atlaslardan foydalanish quyidagi xolatlarining ruy berishini ta‘minlaydi. Birinchidan, ko‘rgazma vositalar o‘quvchilarda geografiya darslariga bo‘lgan qizikishni kuchaytiradi. Ikkinchidan, ular tomonidan geografik tushunchalarning chuqur o‘zlashtirishini ta‘minlaydi. Uchinchidan, o‘quvchilarning tafakkuri rivojlanadi, natijada o‘zlashtirilgan bilim faoliyat ko‘nikmasiga aylanadi.

Geografiya fanini o‘rganishni geografik karta va atlassiz tasavvur qilib bo‘lmaganligi uchun ulardan foydalanish xususiyatlari ham o‘ziga xos xisoblanadi. Kartografik asarlar ichida o‘quv atlalari alohida o‘rin egallaydi. Umum ta‘lim maktablari o‘quv atlalari 2 xil bo‘ladi: o‘rta maktablarda geografiya fanini o‘qitish uchun mo‘ljallangan o‘quv atlalari va o‘quv-o‘lkashunoslik atlalari. Mazkur atlaslar O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari va davlat kadastr davlat qo‘mitasi huzuridagi “Kartografiya” ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi tomonidan darsliklar mazmunidan kelib chiqib chop etiladi.

Maktab geografiyasi atlalari dastlab umumgeografik kartalardan foydalaniladi, kartaga bo‘lgan ko‘nikma, tushuncha va bilimlar oshib borgandan so‘ng mavzuli kartalardan iborat atlalardan foydalanish imkoniyati tug‘iladi. Natijada ma‘lum hududlar (materik, davlat va h.k. lar) ning geografik o‘rnigina emas, balki ularda sodir bo‘layotgan tabiiy va iqtisodiy geografik



o'zgarishlarni, ularning xususiyatlarini ham bilib olish imkoniyati tug'iladi. Chunki, yuqori sinflar atlaslarida mazkur jarayonlarni o'z ichiga olgan mavzuli kartalar to'plami shakllantiriladi. Qolaversa atlaslar o'rta va yuqori sinf atlaslariga bo'linib, mazmuni va jihozlanishi bo'yicha ham farq qiladi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, kartografik asakrlar bilan ishlash voqea-hodisalar to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish, ularni yodda saqlash, tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash o'zaro bog'liqlikni o'rganish va shu asosda xulosa chiqarish yo'llarini o'rgatadi. Ularda maktabda o'quv jarayonida o'quvchilar faolligini kuchaytirishda, fanni mustaqil o'rganish va unga qiziqishni oshirishda, geografiyani hayot bilan bog'lashda, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhda tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.G'ulomov P va boshq.Geografiya: O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. O'zbekiston tabiiy geografiyasi: 7 sinf uchun darslik –T.: O'qituvchi, 2014

2.G'ulomov P., Qurboniyozov R. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi: 5 sinf uchun darslik - Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashr. –T. 2005

3.Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi atlas. 6-sinf // –T.: “Kartografiya”ilmiy ishlab chiqarish davlat korxonasi, 2017.-41 b.



**GEOGRAFIYA DARSLARIDA NOAN`ANAVIY DARS VA INTERFAOL
USULLARDAN FOYDALANISH**

Matkurbonova Diloram Xamroyevna,
Xorazm viloyati Bog`ot tumani 38-maktab
rashidollomovuz@gmail.com

Annotatsiya:Dars jarayonlarida interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Kalit so`zlar: An`anaviy dars, aqliy hujum, dumaloq stol,majoro,interaktiv.

Har bir pedagog pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta`lim-tarbiyasining yanada samarali bo`lishi uchun o`z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o`stirishi, o`quvchilar bilan bo`ladigan munosabatlarni puxta o`ylab, ularning ko`ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim.

O`nlab yillab o`tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko`rsatadiki, an`anaviy dars o`tish ta`limning o`ziga xos modellaridan biri bo`lib qolmoqda.

An`anaviy dars –muayyan muddatga mo`ljallangan, ta`lim jarayoni ko`proq o`qituvchi shaxsiga qaratilgan,mavzugakirishyoritish,mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta`lim modelidir.

O`quv materiali yangi va ancha murakkab bo`lganda, an`anaviy dars – ko`p hollarda ta`lim jarayonining birdan-bir metodi bo`lib qolmoqda.

Ma`lumki, an`anaviy darsda ta`lim jarayonining markazida o`qituvchi turadi. SHu boisba`zida an`anaviy darsni markazida o`qituvchi turgan o`qitish usuli deb ham atashadi.

Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi “interaktiv” metod bo`lib, hozirda uning chala tarjimasi ko`p hollarda “interfaol” deb yuritiladi, “interaktiv” atamasi aslida inglizcha “interaktiv”

so`zidan olingan bo`lib, “o`zaro ta`sirlashish”ma`nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o`zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi.

Interaktiv usullarga: “miya xujumi”, mojaro metodi, “dumalok stol”, “uch boskichli interv`yu”, “muammolarni xal kilish metodi”, “stol urtasidagi ruchka”, “galereyani aylanish”, “akademik munozara”,

“kor buron”metodi, “asalari galasi” “kritik vaziyatni taxlil kilish”va b. kiradi.

Bu metodlar buyicha ishlash uchun 5 kishidan iborat guruxlar tuzib, ishonchli vaziyatni vujudga keltirib, oshkora muxokama kilish uchun psixologik keskinlikni bartaraf etish kerak.

Afzalliklari:

1. Qatnashchilarga uz goyalari vafikrlari bilan ko`proq o`rtoqlashishi, ularning bir-biridan o`rganishi uchun imkon beradi.

2. Kichik guruhlarda qatnashchilar katta guruxda aytishlari mumkin bo`lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin .

3. Diqqat markazini pedagogdan qatnashchilarga ko`chiradi.

4. Qatnashchilarni o`z ustlariga ko`proq mas`uliyat olishga majbur qiladi.

Interaktiv mashgulot turlari

Miya hujumi,mojaro metodi,dumalok stol metodi.

Hozirgi vaqtda ta`lim jarayonida o`qitishning zamonaviy usullarini qo`llash, o`qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta`lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash

maqsadga muvofiq sanaladi. An`anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish darajasini ko`tarilishini ta`minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Azizxo`jayeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat –T.:T.D.P.U.2003.

2.Hasanboyev J,Sariboyev X,Niyozov G,Usmonboyeva M Pedagogika.Oquv qo`llanma-T:Fan-2006



YERNING ICHKI TUZILISHI VA TEKTONIK JARAYONLAR

Nazarova Gulmira Bekchanovna

Xorazm viloyati Shovot tumani

28-son maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yerning ichki tuzilishi, po'stlari, qobiqlari va yerda sodir bo'ladigan tektonik jarayonlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: yer, tektonik jarayon, po'st, qobiq, massa, hajm, yadro, mantiya, zilzila, seysmik, vulqon.

Yerning ichki qismi qobiqlardan tuzilgan, bu qobiqlar o'ziga xos xususiyatga ega. Bu qobiqlarni tashkil etgan jismlar va jarayonlar bilan tanishamiz.

Yer po'sti – Yerning eng yuzada joylashgan qattiq qobig'i. Qalinligi o'rtacha 35–40 km. Moddalarning o'rtacha zichligi $2,7 \text{ g/sm}^3$, Yer hajmining 1 % ini, massasining 0,4 % ini tashkil etadi. Mantiyadan *Moxo chegarasi* orqali ajralib turadi. Yer po'sti kimyoviy elementlar, minerallar, tog' jinslaridan iborat. Eng ko'p tarqalgan kimyoviy elementlar kislorod, kremniy, aluminiydir.

Yer po'sti materik va okean yer po'stiga bo'linadi. Ularga qo'shimcha holda oraliq va riftogen yer po'stlari ham ajratilishini bilish mumkin. Ma'lumki, *materik yer po'sti* 3 ta, ya'ni cho'kindi, granit va bazalt qatlamlaridan tuzilgan. Bunday qatlamlarni ajratish shartlidir. Cho'kindi qatlam eng yuzada joylashgan bo'lib, qalinligi 15–20 km gacha, ohaktosh, qum, gil va boshqalardan iborat. Granit va bazalt qatlamlar har birining qalinligi 10–15 kmni tashkil etadi.

Okean yer po'sti okean tubiga to'g'ri keladi. Qalinligi 5–10 km bo'lib, cho'kindili va bazaltli qatlamlardan tuzilgan.

Oraliq yer po'sti o'rtacha qalinligi 15–30 km, 3 qismdan iborat: chekka dengiz soyligi, orollar yoyi va chuqur cho'kmalar. Dengiz soyligi va chuqur cho'kmalar ostida granit qatlami yo'q, cho'kindi va bazalt qatlamlardan iborat. Granit qatlam faqatgina orollar yoyida paydo bo'ladi. Yevrosiyo materigining sharqiy qirg'oqlarida, Shimoliy va Janubiy Amerikaning sharqiy va g'arbiy qirg'oqlarida mavjud.

Riftogen yer po'sti o'rta okean tizmalariga to'g'ri keladi. Qalinligi 1,5–2 km bo'lib, 2 qatlamli tuzilgan. Cho'kindi qatlamning qalinligi 1–2 km, bazalt qatlam rift vodiylarida (yer yoriqlarida) asta-sekin nuraydi va unchalik qalin emas.

Mantiya – yer po'sti bilan yadro orasidagi qobiq. Moddalarning zichligi $5,7 \text{ g/sm}^3$, Yer hajmining 83 % ini, massasining 68 % ini tashkil etadi. Ikki qismdan iborat bo'lib, *yuqori mantiya* 900 km, *quyi mantiya* esa 2900 km chuqurlikkacha davom etadi. Harorat 2000°C , yadro bilan chegarasida esa 3800°C ga yetadi.

Yadro – Yerning eng chuqur, ichki qismi. Moddalarning zichligi 16 g/sm^3 gacha yetadi. Yer hajmining 16 % ini, massasining 31 % ini tashkil etadi. U ham ikki qismdan iborat bo'lib, *tashqi yadro* 5100 km chuqurlikkacha, *ichki yadro* Yer markazigacha davom etadi. Harorat 4000°C dan ortiq.

Litosfera – Yerning qattiq tosh qobig'i bo'lib, Yer po'sti va yuqori mantiyaning bir qismini o'z ichiga oladi hamda astenosfera qatlamigacha davom etib, qalinligi 150–200 km ni tashkil etadi. Litosfera yaxlit bo'lmay, chuqur yer yoriqlari bilan yirik bo'laklar – litosfera plitalariga bo'lingan. Ular astenosfera ustida yiliga 5–10 sm tezlikda gorizontol yo'nalishda siljiydi. Litosfera plitalari 13 ta. Litosfera plitalari to'qnashgan joylarda tez-tez vulqon va zilzilalar sodir bo'ladi. Bunday mintaqalar **seysmik mintaqalar** deb ataladi.

Yer yuzasida ikkita muhim seysmik mintaqa mavjud:

- 1) Tinch okean “olovli” halqasi;
- 2) Alp–Himolay seysmik mintaqasi. Tinch okean “olovli” halqasi Tinch okeani qirg'oqlari va unga tutash orollarni qamrab oladi.

Alp – Himolay seysmik mintaqasi Atlantika okeani sohillaridan boshlanib,

Pireney yarimoroli, Himolay tog'lari orqali o'tib, Tinch okeani sohillarigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Alp–Himolay seysmik mintaqasida joylashgan. Shu sababli mamlakatimizda ayrim yillari kuchli zilzilalar sodir bo'lib turadi.

Zilzila – yer po'stining ichki qismida ro'y beradigan uzilish, sinish, siljish kabi jarayonlar ta'sirida sodir bo'ladigan silkinishlar. Sabablariga qarab: tektonik, vulqon va o'pirilish zilzilalariga



bo‘linadi. Zilzila kuchi 10 yoki 12 balli seysmik shkala yordamida aniqlanadi. Respublikamizda 12 balli seysmik shkaladan foydalaniladi.

Vulqonlar – yer po‘stida sodir bo‘ladigan tektonik harakatlar natijasida paydo bo‘lgan yoriqlar orqali lava, issiq gaz, suv bug‘lari va boshqa jinlar chiqib turishidan hosil bo‘lgan konussimon qalqonsimon, gumbazsimon tog‘lar va tepalar. Vulqon og‘zi – *krater*, tagi – *magma o‘chog‘i*, mo‘riga o‘xshash tik o‘rta qismi – *vulqon kanali* deb ataladi. Vulqon krateridan otilib chiqadigan lavaning harorati 1500° C gacha yetadi. Vulqonlar shartli ravishda *so‘ngan* va *harakatdagi* vulqonlarga bo‘linadi. Hozirgi paytda sayyoramizda 800 dan ortiq harakatdagi vulqonlar mavjud.

Bundan tashqari, Yerning ichki kuchlari ta‘sirida *geyzerlar* va issiq buloqlar otilishi, yer yuzasi bir qismining asta cho‘kishi va boshqa qismining esa ko‘tarilishi ham sodir bo‘lib turadi. Geyzerlar va issiq buloqlar, asosan, vulqonlar tarqalgan mintaqalarda uchraydi. Ulardan binolarni isitishda hamda elektr energiyasi olishda foydalaniladi. Bunday ishlar Islandiya, Yaponiya, Italiya, Rossiya va Yangi Zelandiya davlatlarida yo‘lga qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Sh.M.Sharipov va boshq.** Geografiya O‘rta ta‘lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik.
2. Internet ma‘lumotlari.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

(25-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000